

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Dizayn (kostyum) sohasi neologizmlarining tarjima­dagi xususiyatlari .....	430
<b>I.Xoldarova, X.Ergʻoziyeva</b>	
Ona tili darslarida fonetikani oʻrgatish orqali orfografik va orfoepik bilimlarni shakllantirishda innovatsion texnologiyalar va mashqlarning oʻrni .....	434
<b>K.Turgunaliyeva, D.Mirzayeva</b>	
Oʻzbek va ingliz tillaridagi sheʼrlarning stilistik tahlili .....	439
<b>Sh.Turgʻunov</b>	
Oʻzbek xalq oʻlanlarida etnik mansubiyat ifodasi .....	442
<b>R.M.Ubaydullayev, U.R.Abdullayev</b>	
Jismoniy mashqlar maktab oʻquvchi yoshlarning morfofunktsional xususiyatlariga bogʻliqligini tahlili .....	447
<b>I.Akramov</b>	
Aforizmlarni pragmatik tushunish aspektlari .....	450
<b>L.Badalova</b>	
Ingliz tilini chet tili sifatida oʻrgatishda storytelling yondashuvining ahamiyati .....	455
<b>S.Eshonqulova</b>	
Nodira badiiy tafakkurini shakllanishida Qoʻqon adabiy muhitining oʻrni .....	458
<b>H.Dusmatov, M.Husaynova</b>	
Oʻzbek latifalarida soʻz oʻyinlarining uslubiy-pragmatik xususiyatlari .....	468
<b>N.Shavilova</b>	
Rus va oʻzbek tillarida paronimlarning tasnifi.....	472
<b>M.Xusanova, M.Xusanova</b>	
Somatik kodlar tadqiqiga doir .....	478
<b>M.Rahimova</b>	
Oʻzbek tilida leksik nomemalar.....	481
<b>D.Sirojiddinova</b>	
Ingliz tilida modal soʻzlar muqobillari haqida umumiy qarashlar.....	484
<b>D.Raximjonova</b>	
Ingliz tilshunosligida kompyuter dasturiy taʼminot atamalarining tuzilish xususiyatlari.....	489
<b>U.Eshmuradov</b>	
Til oʻrganishda tinglashning ahamiyati va tinglab tushunish muammolari: til oʻrganuvchilar tajribasi.....	493
<b>A.Rasulova</b>	
Toʻsiqsizlik munosabatining jahon tilshunosligida oʻrganilishi .....	497
<b>G.Odilova</b>	
Glyuttonik diskursning lingvistik xususiyatlari .....	500
<b>X.Abdurahmonov</b>	
Oʻzbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning oʻrganilishi va ularning ahamiyati.....	504
<b>M.Otaboyeva</b>	
Oʻzbek va ingliz tillaridagi feʼl semantik kategoriyalari boʻyicha tuzilgan graduonimik qatorlarning oʻxshash va farqli jihatlari .....	508
<b>G.Rozikova</b>	
Soʻz semantik taraqqiyotidagi oʻzgarishlar xususida.....	511
<b>Sh.Siddiqova</b>	
Oʻziniki boʻlmagan koʻchirma gaplarda obrazlilikni taʼminlovchi semantik-stilistik faktorlar.....	516
<b>N.Usarova</b>	
Tarjima muammosining nazariy jihatlari .....	520
<b>K.Toʻxtaeva</b>	
C1 darajadagi talabalarga ingliz tilini oʻqitish muammolari.....	524
<b>Z.Usmonova</b>	
Rey Bredberining “Marsga hujum” (“The martian chronicles”) asari bilvosita tarjimasida tarjima usullari va oʻziga xos xususiyatlari.....	531
<b>G.Davlyatova, Sh.Artikova</b>	
Ritorik nutqda pleonastik birliklarning foydalanishi .....	535

## O'ZBEK XALQ O'LANLARIDA ETNIK MANSUBIYAT IFODASI

## ВЫРАЖЕНИЕ ЭТНИЧЕСКОЙ ПРИНАДЛЕЖНОСТИ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ УЛАНАХ

## EXPRESSION OF ETHNIC BELONGING IN THE UZBEK FOLK ULANS

Turg'unov Sherali Dolixonovich<sup>1</sup><sup>1</sup>Turg'unov Sherali Dolixonovich

– Andijon davlat universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya**

Manbalardan ma'lumki, o'zbek to'qson ikki urug'dan tashkil topgan. Jumladan, qurama elatining tarkibiga yapaloq, samarchuq, ko'charto'p, boyto'p, qalmoqto'p, qatag'on, jag'alboyl, suvti, oytamg'ali, beshtamg'ali, qo'shtamg'ali, saritamg'ali, eltamg'ali, achamayli, xonjig'ali, samsirak, jaloyir, uyshun, kerayit olchin, arg'in, kebanak, chilikchi, chilkor, qorasiryak, qaysar, tortuvli, bolg'ali, qaytmas, sanam, shiyqa, galabotir, junbosh, obiz, mo'g'ul, bo'ronchi, eyvalak, kerovchi, tama, telov, tarakli, do'lot va ho kazo urug'larining vakillari kiradilar. Maqolada ana shulardan o'lanlar tarkibida nomlari, hayoti, yashash tarzi va urf-odatlari aks etgan sart, qirq, yuz, no'g'ay kabi urug'lar hamda ularning janr tarkibidagi poetik fuksiyalari xususida so'z yuritiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki:

- etnik mansubiyatni urg'ulaydigan o'lanlarda chechanlar(o'lan ijrochilari)ning qaysi urug', millat yoki elatga mansubligi anglashilib turadi;
- nomi tilga olingan millat yoki urug'ning o'ziga xos milliy xarakter-xususiyatlari, urf-odat va qadriyatlari, mentaliteti, mashg'uloti, hayot tarzi kabilar o'z tabassumini topgan;
- etnik mansubiyat ifodasi aks etgan o'lanlar orqali ijodkor va ijrochilarining qaysi hududga mansub ekanligi va ayni hududga xos lokal belgilar orqali ijod namunalarini areal jihatdan o'rganish hamda baholash imkoni tug'iladi.

**Аннотация**

Из источников известно, что национальность узбек состоит из девяноста двух родов. В частности, в состав нации входят: япалок, самарчук, кочартоп, бойтоп, калмактоп, катагон, джагалбойли, сувти, ойтамгали, бештамгали, коштамгали, саритамгали, аргин, кебанак, чиликчи, чилкор, карасырак, касар, тортувли, болгали, кайтмас, санам, шийка, галаботир, джунбаш, представители родов обиз, монгол, борончи, эйвалак, керовчи, тама, тэлов, таракли, долот и другие. В статье приводятся сведения о таких родах, как сарт, кырк, юз, ногай, представлены названия образа жизни, быта, быт и обычаи которых нашли отражение в их составе, а также об их поэтических функциях в жанре.

В заключение можно сказать, что:

- в уланах, подчеркивающих этническую принадлежность, понимается, к какому клану, нации или народу принадлежат певцы (исполнители уланов);
- воплощены специфические национальные особенности, обычаи и ценности, менталитет, воспитание, образ жизни нации или рода;
- возможность изучить и оценить образцы творчества с территориальной точки зрения, через ареалы, в которых находит выражение этничность, к какому региону принадлежат создатели и исполнители, и через локальные символы, определить характерные черты для определённого региона.

**Abstract**

It is known from sources that the Uzbek nationality consists of ninety-two clans. In particular, the nation includes: yapalok, samarchuk, kochartop, boytop, kalmaktop, katagon, jagalboili, suvti, oytamgali, beshtamgali, koshtamgali, saritamgali, argin, kebanak, chilikchi, chilkor, karasyrak, kasar, tortuvli, bolgali, kaitmas, sanam, sheika, galabotir, junbash, representatives of the obiz, mongol, boronchi, eivalak, kerovchi, tama, telov, tarakli, chisels and others. The article provides information about such clans as Sart, Kyrk, Yuz, Nogai, presents the names of the way of life, life, way of life and customs of which are reflected in their composition, as well as their poetic functions in the genre.

In conclusion, we can say that:

- in ulans, emphasizing ethnicity, it is understood to which clan, nation or people the singers (lancers performers) belong;
- specific national features, customs and values, mentality, upbringing, way of life of a nation or clan are embodied;
- the opportunity to study and evaluate samples of creativity from a territorial point of view, through the areas in which ethnicity is expressed, to which region the creators and performers belong, and through local symbols, to determine the characteristic features for a particular region.

**Kalit so'zlar:** o'lan, harbadosh, etnik mansublik, urug'

**Ключевые слова:** улан, харбадош, этническая принадлежность

**Key words:** ulan, kharbadosh, ethnicity

## KIRISH

O'zbek xalq o'lanlarining mavzu doirasi nihoyatda keng bo'lib, xalqimizning o'tmishdagi ijtimoiy va maishiy hayoti va orzu-umidlarining oynasi kabi. An'anaviy o'lanlarning qaysi bir bandini olmag, unda harbadoshlarning ijtimoiy mashg'uloti, urf-odat va gender munosabatlar, kasbiy shu bilan birga etnik mansubiyati nafasi ufurib turadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Etnik mansubiyatni urg'ulaydigan o'lanlarning muhim jihatlardan biri shundan iboratki, ular orqali chechanlarning qaysi millat yoki urug' vakili ekanligi hamda qaysi hududda yashaganligini taxminan aniqlash imkoni mavjud bo'ladi. Masalan, o'lanlarda ko'p tilga olingan qurama elati o'zbek xalq o'lanlari asosiy qismining ijodkori va ijrochilari sanaladi. Qurama shevasidagi unli va undosh tovushlar hozirgi o'zbek adabiy tilidagi unli va undosh tovushlardan o'zining miqdori va sifati jihatidan farqlanishi G'ozli Olim Yunusov, V.V.Reshetov, T.Sodiqov, I.Xolboev va boshqa olimlarning [4,5,6,7,9,10] tadqiqotlarida ta'kidlab o'tilgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Etnik mansubiyat ifodasi aks etib turgan o'lanlar tahliliga kirishar ekanmiz, yuqorida ta'kid etganimizdek, misralarda o'zbek urug'lari nomlari faol qo'llanganining guvohi bo'lamiz:

*So'rasang, urug'imiz yuz bo'lamiz,  
Bezak bersak chiroyli qiz bo'lamiz.  
Surishtirib ne qilasiz zotimizni,  
Quramaning asl qizi biz bo'lamiz. [8.40]*

Birinchi misraga M.Jo'raevning izoh berishicha, "So'rasang, urug'imiz yuz bo'lamiz" – yirik o'zbek urug'laridan biri hisoblangan "yuz" urug'i vakillari XV-XVI asrlarda Movarounnahr hududiga kelib o'rtnashganlar. Tilshunos olim X.Doniyorovning aniqlashicha, yuz urug'i uch katta qismga bo'lingan: "marqa", "qarapchi", "rajab". Marqa urug'i esa ikkiga – "uyas solin" va "xitoy yuzi"ga bo'lingan. "Uyas" tarkibiga "kerayit", "kal", "norin", "oqchepkan", "boymoqli" urug'lari kirgan bo'lsa, "solin" urug'ida "davlay", "jobuvchi", "tog'ay to'pi", "qirqsadoq", "lapkarach", "shodmon to'pi" shoxobchalari mavjud bo'lgan. "Xitoy yuzi" "quriqozon", "tig'iriq", "beshkubi", "bog'machchoyi", "hoji bolasi", "mo'g'ol", "uvol", "hojibachcha", "xonxo'ja", "nebo'sa", "qoraqursoq" va "sortjuzi" kabi o'n ikki urug'ni o'z ichiga olgan bo'lsa, "yuz"ning "rajab" bo'limi tarkibida "tuyoqli", "choljuvuz", "beshyuz" singari urug'lar bo'lgan"[8.443].

*Unday demang, ko'nglimga g'ash keladi,  
Sartning uyi tevaragi tosh keladi.  
Xotin olsang sartdan ol, birodarlar,  
Tosh tovoqda oldingga osh keladi. [8.80]*

Ma'lumki, o'tmishda tog' oraliqlari va cho'llarda istiqomat qiluvchi ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi aholi hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg'ul bo'lgan shaharliklarni millatidan qat'i nazar, "sart", shaharliklar esa chekka joylardagi aholi vakillarini "elat" deb ataganlar. Tilga olinayotgan masalaning muhim jihati shundan iboratki, "sart" yoki "elat" so'zlarini urug' ma'nosida tushunmaslik lozim. Ularning semantik qamrovi urug'dan keng.[3.36] Chunonchi, qozoqlar o'zbeklarni asrlar mobaynida "sart" deb kelishadi. O'zbekning esa 92 tadan ziyod urug'lari mavjuddir. Jumladan, qurama elatining tarkibiga yapaloq, samarchuq, ko'charto'p, boyto'p, qalmoqto'p, qatag'on, jag'alboyli, suvti, oytamg'ali, beshtamg'ali, qo'shtamg'ali, saritamg'ali, eltamg'ali, achamayli, xonjig'ali, samsirak, jaloyir, uyshun, kerayit olchin, arg'in, kebanak, chilikchi, chilkor, qorasiyrak, qaysar, tortuvli, bolg'ali, qaytmas, sanam, shiyqa, galabotir, junbosh, obiz, mo'g'ul, bo'ronchi, eyvalak, kerovchi, tama, telov, tarakli, do'lot va hakoza urug'larining vakillari kiradilar. Shunday qilib, quramalik elatiya oxunlarining o'lanlarida sartlar hayoti mavzusi keng o'rin olgan.

*Sart eshagin haydaydi tiramangga,  
Guruch arzon, qo'yi qimmat Quramangda.  
Sartdan chiqqan savr etik ololmayman,  
Kishi yorin qo'ynimga sololmayman. [8.27]*

Mazkur o‘lanning ikkinchi misrasini M. Jo‘raev quyidagicha izohlagan: “*Guruch arzon, qo‘yi qimmat Quramangda*” – o‘zbek xalqi tarkibidagi yirik etnik guruhlardan biri qurama bo‘lib, ularning qadim ajdodlari XV-XVI asrlarda Dashti qipchoqda yashaganlar. Keyinchalik ular O‘rta Osiyoga, jumladan, O‘zbekiston hududiga kelib joylashganlar. Qurama elatiga mansub aholi istiqomat kiladigan Ohangaron havzasi, shuningdek, Qurama tizma tog‘lari etaklaridagi qishloqlar hududi Qurama, deb yuritilgan”[8.441].

Qurama chechanlari sartlarning tadbirkorligi va madaniyatini ta‘riflagan o‘lanlardan yana misollar keltiramiz:

*Sartlar tikkan sor etik sol bo‘yningga,  
Sarg‘aytirmay gulimni ol qo‘lingga.  
Sart[ning] uyin oqartirgan tovdagi bo‘r,  
Qarchig‘ayni to‘lg‘atar ipdagi to‘r.* [8.27]

Elatiya terini qayta ishlash sirini bilmaydi. Shaharlik ko‘nchi sartlar ulardan minglab mol terisini suv tekinga sotib oladi-da, ulkan qozonlardagi iliq suvda ivitib, terini qotirib qo‘yadigan ichki pardasini olib tashlashadi, ishkamga aylangan terini maxsus uskunalarda cho‘zib, ishlov berib yaltiroq amirkoni va tukli ag‘darma etiklarni tikishib, elatlarning o‘zlariga qimmat narxda sotishgan. Uni bozorda xarid qilgan chorvador “sartlar tikkan sor (sariq tusli — Sh.T.) etik”ning ikki poyini xursandligidan bo‘yniga solib uyiga qaytgan. Shahar ko‘chalaridan o‘tayotib hayron qoladiki, sartlar “tovdagi bo‘r”ni (aslida ohak – Sh.T.) ham tinch qo‘ymay, suv qo‘shib devorlariga chaplashar ekan.

*O‘z bo‘lmasa deganda, o‘z bo‘lmasa,  
Birov yetalab yurami ko‘z bo‘lmasa.  
O‘lgan odam bekafan ko‘milardi,  
Sart to‘qigan sarala bo‘z bo‘lmasa.* [8.123]

Elatiyalik ko‘chmanchi yana ajablanadiki, yaxshiyam “sarala bo‘z” to‘qiydigan sartlar bor ekan. Bo‘lmasa, butun dunyo odamlari bekafan ko‘milardi.

*O‘lanimning bir boshi barmog‘imda,  
Sart bolasi o‘ynaydi chorbog‘imda.  
Xotin olsang sartdan ol, birodarlar,  
Botir keldi, deydikan borganingda.* [8.156]

Albatta, tog‘ oraliqlaridagi yaylovlarda kun bo‘yi erkaklar bilan barobar chorva tashvishlari bilan shug‘ullangan elat ayolining kechkilik o‘tovda o‘ziga oro berishi uchun vaqti deyarli bo‘lmagan. Chorvador boyning bozorga kelganida tunab qoladigan uyidagi sart xotini esa shaharliklarga xos bezangan, taqinchoqlar undirish uchun chiroyli maqtovlarni yog‘dirgan.

Bepoyon kengliklarga ko‘zi o‘rganib qolgan elat boyiga sartlarning torgina hovliga aylanasiga uy qurishlari g‘alati ko‘rinadi:

*O‘y demagin, ko‘nglimga g‘am keladi,  
Sartning uyi tevarak tom keladi.* [8.136]

O‘lanlarda boshqa urug‘ va millatlar haqidagi obrazli sodda mushohadalar ham uyg‘unlashgan. Fikrimizning dalili bo‘lib xizmat qiladigan misollarni keltirib o‘tamiz:

**Qo‘rqadi bolg‘alilar boltalidan,**  
*Qo‘rqadi ko‘lbar ilon mo‘ltonidan.*[8.244]

“Qo‘rqadi bolg‘alilar boltalidan” – bu misrada qo‘llanilgan “bolg‘ali”, “boltali” so‘zlari etnonim, ya‘ni urug‘ nomi bo‘lishi kerak. Chunki jaloyir va qanjig‘ali urug‘lari tarkibida “bolg‘ali” shaxobchasi mavjud bo‘lgan”. [8.362]

## TILSHUNOSLIK

Ikkinchi misra mazmunidan shuni anglash mumkinki, XI asrda Shimoliy Hindistonga o'n yetti marta harbiy yurish qilgan Mahmud G'aznaviy Mo'ltov viloyatida yashovchi minglab lo'lilar oilalarini qul sifatida hozirgi G'azna, Balx, Mozori Sharif, Buxoro, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlari hududiga olib kelgan[1.138]. Mo'ltovni lo'lilar mahalliy aholini hayratlantiruvchi boshqa juda ko'p faoliyatlari qatorida nay cholib, go'shti inson salomatligi uchun davo bo'lgan ko'lbordagi ilonlarni inidan chiqarib, qafasga solib shifotalab bemorlarga sotganlar. Shu boisdan boshqa ilonlarni uchratsa yutib yuboradigan ko'lbordagi mo'ltovni lo'lidan qo'rqqan.

*O'lanni besh-olti ovuz aytaylik biz,*

**Joylaydi Mo'g'oltovni qirq minan yuz**[8.158].

"Joylaydi Mo'g'oltovni qirq minan yuz" – o'zbek xalqi tarkibidagi "qirq" urug'i vakillari asosan Samarqand, Jizzax viloyati hamda Farg'ona vodiysida istiqomat qilishgan. Bu urug' tarkibi "moltop", "qoracha", "mulkush", "chaprashli" va "chorkesar" shoxobchalaridan iborat bo'lgan.

Yirik o'zbek urug'laridan biri hisoblangan "yuz" urug'i vakillari esa XV-XVI asrlarda Movarounnahr hududiga kelib o'rnatilganlar. Tilshunos olim X.Doniyorovning aniqlashicha, yuz urug'i uch katta qismga bo'lingan: "marqa", "qarapchi", "rajab". Marqa urug'i esa ikkiga – "uyas solin" va "xitoy yuzi"ga bo'lingan. "Uyas" tarkibiga "kerayit", "kal", "norin", "oqchepkan", "boymoqli" urug'lari kirgan bo'lsa, "solin" urug'ida "davlay", "jobuvchi", "tog'ay to'pi", "qirqsadoq", "lapkarach", "shodmon to'pi" shoxobchalari mavjud bo'lgan. "Xitoy yuzi" o'z ichiga "quriqozon", "tig'iriy", "beshkubi", "bog'machchoyi", "hoji bolasi", "mo'g'ol", "uvol", "hojibachcha", "xonxo'ja", "nebo'sa", "qoraqursoq" va "sortjuzi" kabi o'n ikki urug'ni olgan bo'lsa, "yuz"ning "rajab" bo'limi tarkibida "tuyoqli", "choljuvuz", "beshyuz" singari urug'lar bo'lganligi qayd etilgan [8.354].

Mazkur o'lan mazmunining izohi yuzasidan yana shularni qo'shimcha qilish joizki, Mo'g'ultov – Qurama tizmasining Bekobod tumani va Tojikistonning So'g'd viloyat Mastchoh tumanlari hududlariga cho'zilgan janubiy-g'arbiy bo'lagi. Uning kunbotar qismida Bekobod tumaniga qarashli Kal, Tentak, Jumabozor, Tojikiston qismidagi Yantoq va Cholota qishloqlarida asosan parcha yuz, qirq va yuz urug'larining vakillari yashashadi. "Joylaydi Mo'g'oltovni qirq minan yuz", –deyilganida, bizningcha, ana shu urug'lar vakillarining tog' atrofidagi yaylovlarni egallashlari nazarda tutilmoqda .

**Urug'imni so'rasang no'g'aylardan,**

*Quyvon urib beraymi to'qaylardan?*

*Sen esimga tushganda, suluv qizlar,*

*Sibizg'a qip tortaman cho'g'aylardan* [8.81].

"Urug'imni so'rasang no'g'aylardan" – bu misrada qayd etilgan "no'g'ay" so'zi etnonim bo'lib, bu urug' vakillari o'zbek xalqi tarkibida ham uchraydi. Xususan, qanjig'ali urug'i o'n to'rt shoxobchaga bo'lingan: qoraqursoq, no'g'ay, ulus, moltaka, chullik, qo'ldovli, chala, quyvon, qorabuvra, qora, do'ska, ko'rto'g'ay, jelkillak va to'pqora [8.346].

To'rtinchi misradagi "sibizg'a" so'zi, ma'lumki, turkiy xalqlar qadimdan foydalanib kelgan puf lab chalinadigan cholg'u asboblardan birining nomini anglatadi. Uni asosan botqoqlikda o'suvchi "cho'g'ay" (qo'g'ay emas – Sh.T.) degan qamishsimon o'simlikning soyada quritilgan poyasidan tayyorlashgan. Cho'g'ay poyasi bir yarim qarich uzunlikda kesib olinib, ichki qismi tozalanadi va tegishli oraliqda teshiklar ochilib, quyi qismi bekitib qo'yiladi. Cho'g'aydan tayyorlangan sibizg'a Qozog'iston Respublikasi Davlat filarmoniyasining simfonik orkestrida hozir ham boshqa sozlarga jo'rovoqlik qiladi.

## XULOSA

So'ngso'z o'rnida quyidagi xulosalarni keltirish imkoni bor:

- etnik mansubiyatni urg'ulaydigan o'lanlarda chechanlar(o'lan ijrochilari)ning qaysi urug', millat yoki elatga mansubligi anglashilib turadi;

- nomi tilga olingan millat yoki urug'ning o'ziga xos milliy xarakter-xususiyatlari, urf-odat va qadriyatlari, mentaliteti, mashg'uloti, hayot tarzi kabilar o'z tabassumini topgan;

- etnik mansubiyat ifodasi aks etgan o'lanlar orqali ijodkor va ijrochilarining qaysi hududga mansub ekanligi va ayni hududga xos lokal belgilar orqali ijod namunalari areal jihatdan o'rganish hamda baholash imkoni tug'iladi.

1. Bobobekov H. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. –Toshkent, 1995.–B.138.( Bobobekov H. and others. History of Uzbekistan. -Tashkent, 1995.-B.138.)
2. Боровков А.К. К вопросу классификации узбекских говоров. // “Известия АН УзССР”. –Ташкент. 1955. –С.5 (Borovkov A.K. On the issue of classification of Uzbek dialects. // “News of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR”. -Tashkent. 1955. -p.5)
3. Ibrohimov A. Bizkim, o'zbeklar... –Toshkent: Mehnat. 1999. –B.56. (Ibrohimov A. We, the Uzbeks... - Tashkent: Labor. 1999. -B.56.)
4. Решетов В.В. Кураминские говоры Ташкентской области. Фонетическая и морфологическая система. Докторская диссертация. –Ташкент. 1952 (Reshetov V.V. Kurama dialects of the Tashkent region. Phonetic and morphological system. Doctoral dissertation. -Tashkent. 1952)
5. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. Sh. O'zbek dialektologiyasi. Darslik. –Toshkent, 1962.–B.72(Reshetov V.V., Shoabdurahmanov Sh. Sh. Uzbek dialectology. Textbook. -Tashkent, 1962.-B.72)
6. Sodiqov T. Toshkent oblasti shevalari. Monografiya. –Toshkent, 1975.–B.34-56 (Sodikov T. Dialects of Tashkent region. Monograph. -Tashkent, 1975.-B.34-56)
7. Xolboyev I. Qurama shevasida so'zlovchi o'quvchilarga rus tilini o'qitish metodikasi. Nomzodlik dissertatsiyasi. –Toshkent. 1978(Kholboyev I. Methodology of teaching Russian language to students who speak Kurama dialect. Candidate thesis. - Tashkent. 1978)
8. “O'lan aytsang beri kel, aynam-ov” (o'lanlar). // O'zbek xalq ijodi yodgorliklari. J.26. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. (“O'lan aytsang beri kel, aynam-ov” (Olans). // Monuments of Uzbek folk art. V.26. - Tashkent: Publishing house named after Gafur Gulam, 2020.)
9. Qozoqboyeva D. Ohangaron vodiysidagi Qurama shevasining ayrim fonetik xususiyatlari. –Toshkent: Fan. 2004(Kazakbayeva D. Some phonetic features of Kurama dialect in Ohangaron valley. -Tashkent: Science. 2004)
10. Hasanov A., Mirzaqulov T. Istiqlol: tarix va taqdir. Toshkent: Muharrir. 2010. –B.16-24. (Hasanov A., Mirzakulov T. Independence: history and destiny. Tashkent: Editor. 2010. -B.16-24)